



Olim TURSUNOV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: tursunovolim04@gmail.com

O'zMU o'qituvchisi dotsenti v.b. A.Baltabayev taqrizi asosida

COMMON AND IMPORTANT SPECIES OF THE GENUS RODENTIA FOUND IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN
Annotation

The article examines the distribution of representatives of the genus rodentia across the natural plains and cultural landscape of the Kashadaryo region, considered the southern territory of Uzbekistan. The factors contributing to the spread of these species across the territory, the mechanisms of their action and consequences have been identified. The changes that occur in the ethology of species as a result of the adaptation of important ecological and widespread species in various unnatural habitats and its significance are revealed. The factors influencing the study of the natural distribution areas of the species and its penetration into cultural landscapes, and its consequences are shown.

Key words: *Citellus fulvus*, Species, natural landscape, urbophile.

**РАСПРОСТРАНЕННЫЕ И ВАЖНЫЕ ВИДЫ РОДА RODENTIA, ВСТРЕЧАЮЩИЕСЯ В ЮЖНЫХ РАЙОНАХ
УЗБЕКИСТАНА**

Аннотация

В статье рассматривается распространение представителей рода rodentia по природным равнинам и культурному ландшафту Кашадарьинской области, считающейся южной территорией Узбекистана. Выявлены факторы, способствующие распространению этих видов по территории, механизмы их действия и последствия. Раскрываются изменения, происходящие в этологии видов в результате адаптации важных с экологической точки зрения и широко распространенных видов в различных неестественных местообитаниях, и их значение. Показаны факторы, влияющие на изучение ареалов естественного распространения вида и его проникновение в культурные ландшафты, а также его последствия.

Ключевые слова: *citellus fulvus*, вид, природный ландшафт, урбофил.

**O'ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA UCHROVCHI RODENTIA TURKUMINING KENG TARQALGAN VA MUHIM
AHAMIYATGA EGA BO'LGAN TURLARI**

Аннотация

Maqolada Rodentia turkumi vakillarining O'zbekistonning Janubiy hududi hisoblangan Qashqadaryo viloyatining tabiiy tekisliklari va madaniy landshaftlari bo'ylab tarqalishi ko'rib chiqiladi. Ushbu turlarning hudud bo'ylab tarqalishiga yordam beradigan omillar, ularning ta'sir mexanizmlari va oqibatlari aniqlandi. Atrof-muhit nuqtai nazaridan muhim va turli xil tabiiy yashash joylarida keng tarqalgan turlarning moslashishi natijasida turlarning etologiyasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar va ularning ahamiyati ochib beriladi. Turlarning tabiiy tarqalish maydonlarini o'rganishga va uning madaniy landshaftlarga kirib borishiga ta'sir qiluvchi omillar, shuningdek uning oqibatlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *Citellus fulvus*, tur, tabiiy landshaft, urbofil.

Kirish. O'zbekistonda xususan, O'zbekistonning janubiy viloyatlarida tarqalgan kemiruvchilarning faunasi, ekologiyasi, muhim va bugungi kunda qishloq xo'jaligida ahamiyatini o'rganishga doir bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu hududlarning asosiy qismini tekislik va dashtlardan tashkil topgan va kemiruvchilarning xilma-xilligi sababli ularni o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Kemiruvchilarning bugungi kundagi xo'jalikdagi ahamiyati, biozaxarlanishdagi holati kabi holatlarda qatnashi va ushbu ta'sirini keng ko'lamda o'rganish turkum vakillarining ishtirokini kamaytirish usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega [1].

Material va metodlar. Tadqiqot materiallari O'zbekistonning janubiy hududlari Qashqadaryo viloyati va tumanlaridan, shaharlar, qishloqlar va agrosenoziqlaridan yig'ildi. Materiallarni yig'ishda ekologik va zoologik usullaridan foydalanildi. Turlarning tabiiy tarqalish areallari va madaniy landshaftlarda tarqalishi, turlarning turli biotoplardagi holati, soni radial va nuqtali mashrut usullari orqali o'rganildi.

Natijalar va muhokama. O'zbekistonning janubiy hududlari kemiruvchilarning tarqalishi uchun qulay sharoitlarga ega bo'lgan areallardan tashkil topgan. Tadqiqotlar jarayonida Qashqadaryo viloyati ham turkum vakillari uchun tarqalish, erkin, ko'payish va turlarning ekologik moslashuvi uchun qulay optimallar borligi o'rganildi. Quyida bugungi kunda keng tarqalgan va muhim ahamiyatga ega bo'lgan turlar keltirilgan.

Marmota caudata. Qizil sug'ur Hisor tizmasining baland tog'liklaridagi o'tloqlarning tipik turlaridan sanaladi. Ular archali o'rmonlar va qayin o'rmonlarida ham uchraydi. Qizildaryo daryosining o'rta oqimida dengiz sathidan 2000 metr balandlikga bu turning pastki tarqalish arealining chegarasi to'g'ri keladi [2]. Keyingi 15 yilda Hisor tizmasida bu turning arealini qisqarganligi va sonini kamayganligi kuzatilgan. Oxirgi o'n yillikda uning Igris va Kalasayning yuqori oqimida yo'qolib ketganligi aniqlangan. Bu joylarda ularning yo'qolib ketishi chorva mollarini haddan ko'p miqdorda boqish, ularni qopqonda va shu kabi boshqa asboblarda ushlash orqali sodir bo'lganligi qayd etiladi. Hozirda Hisor qo'riqxonasida saqlanib qolgan. Bu tur TMQXI (Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi) ning Qizil ro'yxatini LC. maqomiga ega. Bu turning kamayib ketishida brakonerlik, yashash joylarni yo'q qilinishi va ehtimol epizootiya ham sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Kelgusida uning ekologiyasini chuqur o'rganish va muhofaza qilish uchun ushbu turning bio-ekologik xususiyatlarini kengroq o'rganish maqsadga muvofiq.

Spermophilus fulvus Lichtenstein, 1823. Sariq yumronqoziq Markaziy Osiyodagi yumronqoziqlar orasida yirigi sanaladi. Uning tana uzunligi 40 sm, dumining uzunligi 12 sm keladi. Junning rangi sariq qumrangida. Qishki junlari yozgisiga ko'ra uzun va qalin. Ushbu turning tabiiy yashash joylari qadimda mustahkamlangan qumliklar va tuproqli qumliklar bo'lgan. Ayni vaqtda esa ushbu yashash muhitlari tubdan o'zgarib bormoqda va hozirda uning yashash joylari sifatida madaniylashtirish darajalari turlicha bo'lgan landshaftlarni ham ko'rsatish mumkin.

Erta bahorda fevralning oxiri mart oyining boshida o'simliklar uyg'onishi bilan yumronqoziqlar uyalaridan chiqishadi. Efimerlarning qisqa vegetatsiyasi davrida ular nasl qoldirishga, tanasida yog' yig'ishga, ozuqa zahira qilishga, tullashga ulgurishadi. Ushbu zahira ularga yil davomida yetadi.

Tabiiy hududlardagi cho'llarning o'zlashtirilib vohalarga aylanishi natijasida sariq yumronqoziqlarning bu yerlarni deyarli tark etishi va soni keskin kamayishi, koloniyali holida uya qurmasligi kabi boshqa yumronqoziqlardan farq qiluvchi xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan ayrim biz o'rgangan adabiyotlarda keltirilgan [3]. Ammo bizing kuzatishlarimizda sariq yumronqoziqlarning chekka qishloqlarda va agrosenoziqlar atroflarida uchrashi, shaharlar atrofiga ham uchrashi kuzatildi. Qashqadaryo viloyatida agrosenoziqlar orasida qolib ketgan bo'sh

yerlar, qabristonlar va shu kabi inson faoliyati qisman cheklangan tepaliklarda ularning uya koloniyalari ham qayd etildi. Mazkur holatlar ularning o'ta moslanuvchanligi va tabiiy yashash areallarining tubdan qisqarganligi, qulay uya qurish joylarining yetishmasligi bilan izohlanishi mumkin.

Sariq yumronqoziqning mo'ynasi yuqori baholanadi. 1930-40 yillarda Markaziy Osiyoda bu turni mo'ynasi uchun ovlash juda jadal amalga oshirilgan va ayrim joylarda ularning soni kamaygan. 1960-70 yillarda O'zbekistonda ham ularni ovlash yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda bunday ov butunlay tugatilgan. Ehtimol shu sababli hozirgi kunda bu turning soni oshib bormoqda kelgusida mazkur turni oshlashni ham yo'lga qo'yish orqali uning turni bir maromda saqlab qolishga erishi imkoni bo'ladi[4].

O'zbekistondagi tekislik zonasida, daryo vodiylarida, tog' etaklarida, tog'larning pastki qismlarida, vohalarda keng tarqalgan. Bugungi kunda uni tabiiy landshaftlarda, o'zlashtirilgan va tashlandiq yerlarda, qabristonlarda, qishloqlarda, barcha turdagi suv havzalarining qirg'oq qismida va shu kabi boshqa joylarda uchratish mumkin. Uning dengiz sathidan 1200 metr balandlikkacha uchrashi to'g'risida ma'lumotlar bor.

Ellobius tancrei. Sharq ko'rsichqonining tanasi 15 sm. atrofida bo'lib, haqiqiy yer osti hayvonlaridan biri sanaladi. Butun hayotini yer ostida o'tkazadi va yer yuzasiga kamdan-kam hollarda chiqadi. Yer ostidagi uyasi oldinga va orqaga harakatlana oladi. Bu tur oila hosil qilgan holda yashaydi. Oila markazini ota-ona individlar tashkil etadi. Yer ostidagi uyalar tizimi 10 kv. Metrgacha maydonni egallashi mumkin. Yozgi uyasi 10-30 sm chuqurlikda va asosiy yo'lgi 100 metr va undan uzun bo'ladi. Asosiy uya yo'lidan bir nechta tarmoqlar chiqadi, tarmoqlar 5-50 metrgacha bo'ladi. Bu uyalar oziqa izlash uchun doimo qazib turiladi. Qishki uyasi 50-100 sm chuqurlikda bo'ladi va unda albatta hech bo'lmaganda bitta oziqa kamerasi bo'ladi. Oziqa kamerasida oziqa zahirasi saqlanadi. Ko'rsichqonlar o'simliklarning yer osti a'zolari bilan oziqlanadi. Suv ichmaydi va bu ehtiyojni oziqa tarkibidan qondiradi.

Yilning issiq davrida 2-3 marta nasl beradi. Qish iliq kelganda yil davomida ko'payishi mumkin. Bir tug'ishda 4 tagacha bola tug'adi. Tug'ish uyadagi maxsus kamerada sodir bo'ladi. Bu kamera yumshoq to'shama bilan jihozlanadi. Bolalari juda sekin rivojlanadi va 6 oyda voyaga yetadi.

Dehqonchilik yuritiladigan joylarda sabzavot va boshoqli ekinlarga ularning ildizini yeyish orqali ziyon yetkazadi. Piyoz, rediska, kartoshka, sabzi va sholg'om kabi ekinlarni ham iste'mol qiladi.

Ondatra - Ondatra zibethicus Linnaeus, 1786. Ondatra O'zbekiston ning deyarli barcha suv havzalarida tarqalgan yirik kemiruvchi. Suvda yashashga moslashgan bo'lib, panjalari orasida parda borligi va dumining yon tomonlari yassilashganligi uchun ondatra yaxshi suzadi va sho'ng'iydi. Og'irligi o'rtacha 1-1.5 kg (1.8 kg gacha), tanasining uzunligi 23-26 sm, dumining uzunligi 18-26 sm. rangi qo'ng'ir, jigarrang yoki qora. Erkagi va urg'ochisi rangi va kattaligi bilan ajratilmaydi. Mo'ynasi juda qalin, bu esa tanasi suv o'tkazmasligini bildiradi. Ondatraning vatani Shimoliy Amerika, Yevropaga birinchi marta 1905-yilda olib kelingan va bugungi kungacha juda yaxshi moslashib, Yevrosiyoning o'rtasi qismida, ya'ni G'arbiy Yevropadan to Uzoq Sharqgacha tarqalgan. O'zbekistonga ham iqlimlashtirilgan.

Hozir O'zbekistonda barcha tekislik suv havzalari - ko'llar, daryolar va kanallarda tarqalgan. 1944 yilda Amudaryo deltasida maydoni 350 ming ga bo'lgan Amudaryo ondatra hayvonotchilik ishlab chiqarish xo'jaligi tashkil etilgan va unda iqlimlashtirish orqali sanoat maqsadida yetishtirish uchun 3345 bosh ondatra keltirilgan. Keyinchalik 1956 yilda Xorazm va Toshkent viloyatlarida ham hayvonotchilik ishlab chiqarish xo'jaliklarida Ondatra zibethicus dan sanoat ovi sifatida foydalanish yo'lga qo'yilgan. Ularning mo'ynasi viloyatlardagi tayyorlov idoralariga so'ngra Toshkent mo'yna-teri bazasiga topshirilgan.

Mo'ynasiga o'rtacha muhim o'rin tutgan. 1985-2000 yillarda MDH miqosida tayyorlanadigan ondatra mo'ynasining 20% Amudaryo deltasida yetishtirilgan va shu kabi qimmatbaho mo'yna beradigan boshqa hayvon turlarini iqlimlashtirish hamda ko'paytirish yo'nalishidagi ishlar bajarilgan. Sanoat ovining yo'qolib ketishi mo'ynaga bo'lgan talabning kamayishi, mo'yna qabul qiluvchi tashkilotlarning tugatiliishi va bu sohaning o'z holiga tashlab qo'yilganligi, natijada ushbu maqsadda ovlanadigan hayvonlar sonining keskin kamayib ketganligi bilan bog'liq. Kelgusida xalqaro amaliyotni o'rganish asosida ovchilik xo'jaliklarida sanoat maqsadlaridagi ov turini yo'lga qo'yish va u bilan shug'ullanuvchi ovchilik xo'jaliklarini rag'batlantirish soha rivojida muhim ahamiyat kasb etadi [7]. Shu bilan birga, xo'jalikning potensial imkoniyatini monitoring qilish, baholash va prognozlash ham xo'jalik faoliyatini optimallashtirishga hamda biologik xilma-xillikni saqlashga xizmat qiladi.

Sanoat ovining tugatiliishi, uning mo'ynasiga bo'lgan talabning pasayishiga qaramasdan, respublika bo'yicha, bu turning brakonerlik usulida ovlaniishi qayd etildi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2019 yilda O'zbekistonda ovlangan 1505 ta ondatra mo'ynasining qo'shni Qozog'istonga noqonuniy olib o'tayotganligi aniqlangan. Oxirgi yillarda ondatraning baliq bilan oziqlanish orqali baliqchilik sohasiga ziyon yetkazishi, irrigatsiya tizimlarida biozozarlanishda ishtirok etishi to'g'risida turli fikrlar bor. Mazkur masalalar ilmiy asosda chuqur o'rganishni taqazo etadi. Ovchilik xo'jaliklarining taraqqiyotida o'tgan asrning o'rtalarida keng miqosda rivojlangan va bugungi kunda tugatilgan sanoat ovi o'ta muhim o'rin tutgan. 1950 yillarda MDH miqosida tayyorlanadigan ondatra mo'ynasining 20% Amudaryo deltasida yetishtirilgan va shu kabi qimmatbaho mo'yna beradigan boshqa hayvon turlarini iqlimlashtirish hamda ko'paytirish yo'nalishidagi ishlar bajarilgan. Sanoat ovining yo'qolib ketishi mo'ynaga bo'lgan talabning kamayishi, mo'yna qabul qiluvchi tashkilotlarning tugatiliishi va bu sohaning o'z holiga tashlab qo'yilganligi, natijada ushbu maqsadda ovlanadigan hayvonlar sonining keskin kamayib ketganligi bilan bog'liq. Kelgusida xalqaro amaliyotni o'rganish asosida ovchilik xo'jaliklarida sanoat maqsadlaridagi ov turini yo'lga qo'yish va u bilan shug'ullanuvchi ovchilik xo'jaliklarini rag'batlantirish soha rivojida muhim ahamiyat kasb etadi [7]. Shu bilan birga, xo'jalikning potensial imkoniyatini monitoring qilish, baholash va prognozlash ham xo'jalik faoliyatini optimallashtirishga hamda biologik xilma-xillikni saqlashga xizmat qiladi.

Rhombomys opimus. Lich, 1823. Qashqadaryo viloyatining cho'l zonasida, jumladan Muborak va Chiroqchi tumanlaridagi qumlik hududlarda katta qumchichqonlarning tarqalishi aniqlandi. O'rta Osiyo cho'llari o'latning tabiiy markazi haqida zamonaviy g'oyalari o'tgan asrning 50-yillarining boshlarida, cho'llarning keng hududi tizimli va rejali epizootologik tekshirish boshlanganidan keyingina shakllana boshladi. Ulardan eng muhimi katta qumsichqoni va uning o'ziga xos ektoparazitlar - Xenopsylla avlodiga mansub burgalarining o'lat kasalligini qo'zg'atishda epidemiyasi davomida davriyligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Turli o'choqda o'lat mikrobining keng tarqalishida tabiiy va faol ravishda boshqa turdagi tashuvchilar va tarqatuvchilar ham aniqlangan N.V.Bashenina [5].

Oxirgi tadqiqotlarga qaraganda, Shimoli-G'arbiy Qizilqumning 7 landshaft ekologik tumanlarida keyingi 35-40 yil davomida doimiy stasionar mavsumiy kuzatish bo'yicha ko'p yillar davomida olib borilgan izlanishlar natijasida 8-10 yilda katta qumsichqon soni ham 3-4 marotaba yuqori darajadagi ko'payishi qaytalanib turgani aniqlangan. Bu kabi spontan o'sishlar kasallik o'choqlari sanalgan kemiruvchilarni populyasiyada o'sislarning yuz berishiga sabab bo'ladi. Qizilqum cho'l hududlarida katta qumsichqon va tushki qumsichqonlar keng tarqalgan va miqdori bo'yicha epifikatorlik dominant darajaga ega turlar sifatida tariflanadi. Ularning soni yillar davomida Qizilqum cho'l hududida kamayish tendensiyasiga egaligi aniqlangan[6]. Katta qumsichqon kunduz kuni faol bo'lib, guruh bo'lib oilaviy shaklda yashaydi. Koloniyalari katta maydonlarni egallab, 3 yarusli chuqur in qazib yashaydi. Qishga oziqa to'playdi. O'simlikning barcha vegetativ organlari bilan oziqlanadi. Katta qumsichqon o'simliklarning poyasi, shoxlari bilan oziqlanadi.

Xulosa. Keyingi yillarda kemiruvchilarning aholi turar joylarining yaqinida uchrashi va bu yerlarni yashash muhiti sifatida tanlashi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Vaziyatning bunday tus olishi kemiruvchilar va inson xo'jaligi orasidagi munosabatlarning yanada yaqinlashuviga, turli biotsenotik aloqalar natijasida shakllanishi mumkin bo'lgan biozozarlanishlarning sifat va miqdor jihatdan oshishiga olib kelishi mumkin. Shunday biozozarlanishlar jumlasiga, turli epizootik va epidemiologik vaziyatlarning shakllanishi, omborlardagi oziq-ovqat mahsulotlarining buzulishi va boshqalarni misol qilish mumkin.

Ekologik jihatdan moslanuvchan bo'lgan kemiruvchilar boshqa turkum vakillariga nisbatan madaniy landshaftlarni egallashda qator ustunliklarga ega. Bunday ustunlik ularning inson bilan yonma-yon yashash imkoniyatlarini yanada oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Колосов А. М. Грызуны - Вредители сельхоза хозяйства Москва- 1960. – С. 78-80.
2. Быкова Е.А. и др. Редкие млекопитающие Кашкадаринской области Узбекистана. Вестник ТГУ, т.22, вкп.5, 2017.- С.846-848
3. Захидов Т.З. Природа и животный мир Средней Азии. Toshkent: O'qituvchi, 1971- S. 164-211
4. Минин Н.В. Эколого-географический очерк грызунов Средней Азии. Изд. ЛГУ. Ленинград. 1938. – С. 78-80. 112-114.
5. Башенина Н. В. Пути адаптаций мышевидных грызунов. - М.- Наука. 1977.- 354 с.

6. Olim Toshtemir o'g'li Tursunov. Qashqadaryo viloyatidagi kemiruvchilar -rodentia turkumining ayrim turlarini biotoplardagi soni va uning ekologik omillar bilan bog'liqligi. Academic research in educational sciences, (2022) 3 (11), 212-216.
7. Алексеев А.Ф. Экологические условия энзоотии чумы в Северо-Западных Кызылкумах. // Автореф. дисс. ... канд. биол. наук –М, 1979, -С. 22.